

**DIPLOMATIK VA KONSULLIK IMMUNITETLARINING FUNKSIONAL MOHIYATI:
XALQARO MUNOSABATLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI**

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq yo'nalishi 1-bosqich magistranti
Razzoqov Elbek Alisher o'g'li
Murojaat uchun: (+998 93 955 20 02)**

**FUNCTIONAL ESSENCE OF DIPLOMATIC AND CONSULAR IMMUNITIES: THEIR
ROLE IN ENSURING THE STABILITY OF INTERNATIONAL RELATIONS**

**Razzokov Elbek Alisher ugli, 1st year master's student in International Law at the University
of World Economy and Diplomacy
For reference: (+998 93 955 20 02)**

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada diplomatik va konsullik vakillari immunitetlarining xalqaro huquqdagi funksional mohiyati, ularning shaxsiy imtiyoz emas, balki davlatlararo muloqot, vakillik, muzokara, axborot almashinuvi va fuqarolar manfaatlarini himoya qilish vazifalarini samarali bajarishga xizmat qiluvchi huquqiy kafolat sifatidagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda 1961-yilgi Diplomatik aloqalar to'g'risidagi Vena konvensiyasi, 1963-yilgi Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena konvensiyasi, Xalqaro sud amaliyoti hamda doktrinal manbalar asosida immunitetlarning nazariy-huquqiy asoslari, diplomatik va konsullik immunitetlari o'rtasidagi farqlar, ularning xalqaro munosabatlar barqarorligiga ta'siri va suiiste'mol holatlariga qarshi huquqiy muvozanat mexanizmlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: diplomatik immunitet, konsullik immuniteti, funksional zarurat, Vena konvensiyasi, xalqaro munosabatlar, persona non grata, diplomatik vakolatxona, konsullik funksiyalari.

Abstract. This scientific article analyzes the functional nature of diplomatic and consular immunities in international law, their role as a legal guarantee that serves the effective performance of the tasks of interstate communication, representation, negotiation, information exchange and protection of the interests of citizens, not as a personal privilege. The study examines the theoretical and legal foundations of immunities, the differences between diplomatic and consular immunities, their impact on the stability of international relations, and the mechanisms of legal balance against abuse, based on the 1961 Vienna Convention on Diplomatic Relations, the 1963 Vienna Convention on Consular Relations, international judicial practice and doctrinal sources.

Keywords: diplomatic immunity, consular immunity, functional necessity, Vienna Convention, international relations, persona non grata, diplomatic mission, consular functions.

Аннотация. В данной научной статье анализируется функциональная природа дипломатического и консульского иммунитета в международном праве, его роль как правовой гарантии, обеспечивающей эффективное выполнение задач межгосударственного общения, представительства, переговоров, обмена информацией и защиты интересов граждан, а не как личной привилегии. В исследовании рассматриваются теоретические и правовые основы иммунитетов, различия между дипломатическим и

консульским иммунитетам, их влияние на стабильность международных отношений и механизмы правового баланса против злоупотреблений, на основе Венской конвенции о дипломатических отношениях 1961 года, Венской конвенции о консульских отношениях 1963 года, международной судебной практики и доктринальных источников.

Ключевые слова: дипломатический иммунитет, консульский иммунитет, функциональная необходимость, Венская конвенция, международные отношения, персона нон грата, дипломатическая миссия, консульские функции.

Kirish. Diplomatiik va konsullik immunitetlari xalqaro huquqning eng qadimiy va barqaror institutlaridan biri bo'lib, ularning shakllanishi davlatlar o'rtasidagi doimiy aloqalar, tinch muzokaralar va vakillik faoliyatining huquqiy kafolatga muhtojligi bilan bevosita bog'liqdir. Zamonaviy xalqaro huquqda ushbu institutning asosiy manbalari 1961-yilgi Diplomatiik aloqalar to'g'risidagi Vena konvensiyasi hamda 1963-yilgi Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena konvensiyasi hisoblanadi. Har ikki konvensiyaning muqaddimasida imtiyoz va immunitetlarning maqsadi alohida shaxslarni manfaatlantirish emas, balki tegishli diplomatiik missiya yoki konsullik muassasasining vazifalarini samarali bajarishini ta'minlash ekanligi mustahkamlab qo'yilgan. Diplomatiik immunitetlarning mazmuni, avvalo, diplomatiik vakilning shaxsiy daxlsizligi, diplomatiik vakolatxona binolari, arxivlari va rasmiy yozishmalarining daxlsizligi, qabul qiluvchi davlat yurisdiksiyasidan ozod etilishi hamda erkin aloqa yuritish kafolatlarida namoyon bo'ladi. Konsullik immunitetlari esa, odatda, diplomatiik immunitetlarga nisbatan torroq bo'lib, ko'proq "funktional immunitet" shaklida amal qiladi, ya'ni konsullik mansabdor shaxsi asosan o'z rasmiy funksiyalarini bajarish doirasidagi harakatlari uchun qabul qiluvchi davlat yurisdiksiyasidan ozod qilinadi¹.

Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi xalqaro munosabatlarda diplomatiik aloqalar nafaqat siyosiy muzokaralar, balki iqtisodiy hamkorlik, xavfsizlik, migratsiya, inson huquqlari, fuqarolarni himoya qilish, favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya va konsullik yordamiga oid masalalarni ham qamrab oladi. Shunday sharoitda immunitetlar davlat vakillarining erkin, xavfsiz va mustaqil harakatlanishini ta'minlovchi zarur huquqiy mexanizm sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, immunitetlarning mutlaq shaxsiy imtiyoz sifatida noto'g'ri talqin qilinishi ularning suiiste'mol qilinishiga, qabul qiluvchi davlat suvereniteti va jamoat tartibi bilan to'qnashuvga olib kelishi mumkin. Shuning uchun immunitetlarning funksional mohiyatini chuqur anglash ularning huquqiy chegaralarini to'g'ri belgilash uchun muhim hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, doktrinal yondashuv va sud amaliyotini tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Normativ-huquqiy tahlil orqali 1961-yilgi Vena konvensiyasining diplomatiik vakolatxona funksiyalari, diplomatiik vakilning daxlsizligi, yurisdiksiion immuniteti, qabul qiluvchi davlat qonunlariga hurmat majburiyati va persona non grata institutiga oid normalari o'rganildi. Konsullik immunitetlarini tahlil qilishda 1963-yilgi Vena konvensiyasining konsullik funksiyalari, konsullik binolari va arxivlari daxlsizligi, konsullik mansabdor shaxslarining yurisdiksiyadan immuniteti hamda qabul qiluvchi davlat qonunlariga rioya qilish majburiyati haqidagi normalariga e'tibor qaratildi. Qiyosiy-huquqiy metod diplomatiik va konsullik immunitetlari o'rtasidagi asosiy farqlarni aniqlashga xizmat qildi. Doktrinal metod

¹ Vienna Convention on Consular Relations, 24 April, 1963. Article 43.

https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/9_2_1963.pdf

yordamida Eileen Denza, Satow's Diplomatic Practice, John Quigley va boshqa mutaxassislarining diplomatik huquq haqidagi qarashlari tahlil qilindi. Xalqaro sud amaliyoti sifatida, xususan, *United States Diplomatic and Consular Staff in Tehran* ishi hamda *Arrest Warrant of 11 April 2000* ishi o'rganildi. Tehran ishi diplomatik va konsullik vakolatxonalari daxlsizligi xalqaro huquqiy tartibot uchun fundamental ahamiyatga ega ekanini ko'rsatsa, Arrest Warrant ishi yuqori martabali davlat vakillarining xalqaro munosabatlardagi erkin faoliyati uchun immunitetlar zarurligini yoritadi².

Natijalar. Tadqiqot natijalari

shuni ko'rsatadiki, diplomatik va konsullik immunitetlarining asosiy mohiyati "funktional zarurat" nazariyasi bilan izohlanadi. Bu nazariyaga ko'ra, immunitetlar diplomatik yoki konsullik vakiliga uning shaxsiy maqomi uchun emas, balki u bajarayotgan xalqaro-huquqiy vazifalarning erkin va samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun beriladi. Diplomatik missiya qabul qiluvchi davlat hududida yuboruvchi davlat nomidan vakillik qiladi, uning manfaatlarini himoya qiladi, muzokaralar olib boradi, qonuniy vositalar orqali qabul qiluvchi davlatdagi vaziyatni o'rganadi va ikki davlat o'rtasidagi do'stona munosabatlarni rivojlantiradi. Ana shu funksiyalarni bajarish uchun diplomatik vakil qabul qiluvchi davlatning siyosiy bosimi, sud-tergov aralashuvi yoki ma'muriy ta'siridan xoli bo'lishi kerak.

Diplomatik

immunitetning eng muhim elementi shaxsiy daxlsizlikdir. 1961-yilgi Vena konvensiyasiga muvofiq, diplomatik agent hibsga olinishi yoki ushlab turilishi mumkin emas; qabul qiluvchi davlat unga nisbatan munosib hurmat ko'rsatishi va uning shaxsi, erkinligi hamda qadr-qimmatiga tajovuzlarning oldini olish uchun zarur choralarni ko'rishi lozim³. Bu qoida diplomatik vakilga cheksiz erkinlik berish uchun emas, balki davlatlararo muloqot vositasini himoya qilish uchun belgilangan. Diplomatik vakilning xavfsizligi ta'minlanmasa, davlatlar o'rtasidagi muzokaralar ishonchsiz, beqaror va siyosiy bosimga moyil bo'lib qoladi. Diplomatik vakolatxona binolari, arxivlari va rasmiy yozishmalari daxlsizligi ham xalqaro munosabatlar barqarorligi uchun muhimdir. Diplomatik vakolatxona qabul qiluvchi davlat hududida joylashgan bo'lsada, uning binolariga qabul qiluvchi davlat organlari vakolatxona rahbarining roziligisiz kira olmaydi. Vakolatxona arxivlari va hujjatlari har qanday vaqtda va har qanday joyda daxlsiz hisoblanadi. Bu kafolatlar diplomatik faoliyatning maxfiyligi, yuboruvchi davlat bilan erkin aloqa yuritish va siyosiy muzokaralarning mustaqilligini ta'minlaydi.

Konsullik immunitetlari diplomatik

immunitetlardan farqli ravishda torroq doirada amal qiladi. Konsullik muassasalari asosan yuboruvchi davlat fuqarolari va yuridik shaxslarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, pasport-viza, fuqarolik holati, notarial harakatlar, meros, kema va havo kemalari bilan bog'liq masalalarda yordam ko'rsatish kabi amaliy funksiyalarni bajaradi. Shu sababli konsullik mansabdor shaxslarining immuniteti odatda ularning rasmiy funksiyalarini bajarish doirasidagi harakatlari bilan cheklanadi. 1963-yilgi Vena konvensiyasining 43-moddasiga muvofiq, konsullik mansabdor shaxslari va konsullik xodimlari konsullik funksiyalarini bajarish jarayonida sodir etgan rasmiy harakatlari bo'yicha qabul qiluvchi davlatning sud yoki ma'muriy yurisdiksiyasiga tortilmaydi. Natijalar shuni ham ko'rsatadiki, immunitetlar xalqaro munosabatlarda o'zaro ishonch va huquqiy

² International Court of Justice, *United States Diplomatic and Consular Staff in Tehran (United States of America v. Iran)*, Judgment of 24 May 1980; International Court of Justice, *Arrest Warrant of 11 April 2000 (Democratic Republic of the Congo v. Belgium)*, Judgment of 14 February 2002. <https://www.icj-cij.org/case/64>

³ Vienna Convention on Diplomatic Relations, 18 April, 1961. Article 29. https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/9_1_1961.pdf

barqarorlikni ta'minlaydi. Agar bir davlat boshqa davlat vakillariga nisbatan siyosiy ta'qib, asossiz hibsga olish yoki bosim o'tkazish imkoniga ega bo'lsa, diplomatik muloqot izdan chiqadi. Shu bois immunitetlar davlatlar o'rtasida minimal huquqiy ishonch maydonini yaratadi. Xalqaro sudning Tehran ishi bo'yicha qarori ham diplomatik va konsullik vakolatxonalarini daxlsizligining buzilishi xalqaro huquqning jiddiy buzilishi ekanini ko'rsatadi⁴.

Muhokama. Diplomati va konsullik immunitetlari xalqaro huquqda ikki asosiy manfaat o'rtasidagi muvozanatga asoslanadi: bir tomondan, yuboruvchi davlat vakillarining erkin va mustaqil faoliyat yuritishi; ikkinchi tomondan, qabul qiluvchi davlatning suvereniteti, jamoat tartibi va qonuniy manfaatlari. Shu sababli immunitetlar hech qachon "qonundan ustunlik" yoki "jazodan mutlaq ozodlik" sifatida talqin qilinmasligi kerak. 1961-yilgi Vena konvensiyasining 41-moddasida diplomatik imtiyoz va immunitetlardan foydalanuvchi shaxslar qabul qiluvchi davlat qonunlari va qoidalarini hurmat qilishi, uning ichki ishlariga aralashmasligi shartligi belgilangan. Xuddi shunday yondashuv 1963-yilgi Vena konvensiyasining 55-moddasida konsullik xodimlariga nisbatan ham mustahkamlangan.

Immunitetlar suiiste'mol qilingan hollarda xalqaro huquq bir qator muvozanat mexanizmlarini nazarda tutadi. Birinchidan, qabul qiluvchi davlat diplomatik vakilni *persona non grata* deb e'lon qilishi mumkin. Bu institut qabul qiluvchi davlatga diplomatik vakilni istalgan vaqtda, sababini tushuntirmasdan, nomaqbul shaxs sifatida tan olish imkonini beradi. Ikkinchidan, yuboruvchi davlat diplomatik yoki konsullik immunitetidan voz kechishi mumkin. Uchinchidan, diplomatik vakil yuboruvchi davlat hududida javobgarlikka tortilishi ehtimoli saqlanib qoladi. To'rtinchidan, og'ir siyosiy yoki huquqiy nizolar yuzaga kelganda diplomatik munosabatlar cheklanishi yoki uzilishi mumkin, biroq hatto bunday vaziyatda ham vakolatxona binolari, arxivlari va manfaatlarni himoya qilish bilan bog'liq ayrim kafolatlar saqlanadi.

Doktrinal manbalarda immunitetlarning uch nazariy asosi ko'rsatiladi: ekshududiylik nazariyasi, vakillik nazariyasi va funksional zarurat nazariyasi. Zamonaviy xalqaro huquqda aynan funksional zarurat nazariyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Eileen Denza diplomatik huquqni davlatlar o'rtasida elchixonalar almashinuvi, elchilarning xavfsizligi va diplomatik funksiyalarni bajarishga imkon beruvchi eng fundamental xalqaro huquqiy qoidalar majmui sifatida baholaydi⁵. Satow's Diplomatic Practice esa diplomatik imtiyozlar, immunitetlar va qulayliklarni diplomatik faoliyatning amaliy sharti sifatida izohlaydi⁶. Konsullik immunitetlarining funksional tabiati yanada yaqqol ko'rinadi. John Quigley konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena konvensiyasini davlatlararo kundalik amaliy munosabatlar, xususan, chet eldagi fuqarolarni himoya qilish tizimining muhim huquqiy asosi sifatida baholaydi⁷. Konsullik mansabdor shaxsining immuniteti keng siyosiy vakillikdan ko'ra, aniq konsullik funksiyalarini bajarish bilan bog'liq bo'lganligi sababli, u diplomatik immunitet kabi to'liq shaxsiy daxlsizlik darajasiga ega emas. Bu farq xalqaro huquqda immunitetlarning vazifaga

⁴ ICJ, *United States Diplomatic and Consular Staff in Tehran*, Judgment, 24 May 1980.

<https://www.icj-cij.org/case/64>

⁵ Eileen Denza, *Diplomatic Law: Commentary on the Vienna Convention on Diplomatic Relations*, Oxford University Press. <https://academic.oup.com/oxford-law-pro/book/61582>

⁶ Sir Ivor Roberts, ed., *Satow's Diplomatic Practice*, 8th ed., Oxford University Press, 2023.

<https://academic.oup.com/oxford-law-pro/book/56240>

⁷ John B. Quigley, "Vienna Convention on Consular Relations: In Retrospect and Into the Future," *Southern Illinois University Law Journal*, 2013. <https://law.siu.edu/common/documents/law-journal/articles-2013/fall-2013/5-quigley-article-final.pdf>

mutanosib bo'lishi prinsipini aks ettiradi.

Xalqaro

munosabatlar barqarorligi nuqtayi nazaridan immunitetlar uch asosiy vazifani bajaradi. Birinchidan, ular siyosiy muloqotni himoya qiladi. Davlatlar o'rtasida ziddiyat mavjud bo'lgan taqdirda ham diplomatik vakillar xavfsiz muzokara olib borishi lozim. Ikkinchidan, ular davlat suveren tengligini amalda ta'minlaydi: qabul qiluvchi davlat yuboruvchi davlat vakilini o'z milliy yurisdiksiyasi orqali siyosiy ta'sir ostiga ola olmaydi. Uchinchidan, ular inqiroz sharoitida ham minimal aloqa kanalini saqlab qoladi. Diplomatik munosabatlar yomonlashgan vaziyatlarda ham elchixonalar, konsulliklar yoki uchinchi davlat orqali manfaatlarni himoya qilish mexanizmlari xalqaro xavfsizlik uchun muhim rol o'ynaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, diplomatik va konsullik vakillari immunitetlari xalqaro huquqda shaxsiy imtiyoz sifatida emas, balki davlatlararo muloqot, vakillik, muzokara, axborot almashinuvi va fuqarolarni himoya qilish funksiyalarini samarali bajarishga xizmat qiluvchi zarur huquqiy kafolat sifatida shakllangan. Ularning funksional mohiyati 1961-yilgi va 1963-yilgi Vena konvensiyalarining muqaddimalari, moddalari, Xalqaro sud amaliyoti va ilmiy doktrinada aniq ifodalangan. Diplomatik immunitetlar kengroq siyosiy vakillik va davlatlararo aloqalarni himoya qilsa, konsullik immunitetlari asosan konsullik funksiyalari doirasida amal qiladi. Shu jihatdan, har ikki institutning umumiy maqsadi bitta: xalqaro munosabatlarda barqarorlik, ishonch va huquqiy davomiylikni ta'minlash.

Maqola natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, diplomatik va konsullik immunitetlarini milliy huquqda talqin qilishda funksional zarurat mezoni asosiy yondashuv sifatida qo'llanishi lozim; ikkinchidan, immunitetlar suiiste'mol qilingan hollarda persona non grata, immunitetdan voz kechish va yuboruvchi davlat yurisdiksiyasida javobgarlik masalalari aniq protsessual tartibda qo'llanishi kerak; uchinchidan, diplomatik va konsullik xodimlari uchun qabul qiluvchi davlat qonunlariga hurmat, yo'l harakati, mehnat munosabatlari, moliyaviy majburiyatlar va inson huquqlariga oid majburiyatlar bo'yicha muntazam huquqiy treninglar tashkil etilishi maqsadga muvofiq; to'rtinchidan, konsullik himoyasi institutini kuchaytirish orqali chet eldagi fuqarolarning huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish imkoniyati kengaytirilishi zarur. Ana shundagina immunitetlar xalqaro huquqiy tartibotning barqarorlikka xizmat qiluvchi vositasi sifatida o'z mohiyatini to'liq namoyon etadi.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. Vienna Convention on Diplomatic Relations, 18 April, 1961. Article 29. https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/9_1_1961.pdf 2.
- Vienna Convention on Consular Relations, 24 April, 1963. Article 43. https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/9_2_1963.pdf 3.
- International Court of Justice, *United States Diplomatic and Consular Staff in Tehran (United States of America v. Iran)*, Judgment of 24 May 1980; International Court of Justice, *Arrest Warrant of 11 April 2000 (Democratic Republic of the Congo v. Belgium)*, Judgment of 14 February 2002. <https://www.icj-cij.org/case/64> 4.
- Eileen Denza, *Diplomatic Law: Commentary on the Vienna Convention on Diplomatic Relations*, Oxford University Press. <https://academic.oup.com/oxford-law-pro/book/61582>
5. Sir Ivor Roberts, ed., *Satow's Diplomatic*

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-6, ISSUE-5

Practice, 8th ed., Oxford University Press, 2023. <https://academic.oup.com/oxford-law-pro/book/56240>
6. John B. Quigley, "Vienna Convention on Consular Relations: In Retrospect and Into the Future," *Southern Illinois University Law Journal*, 2013. https://law.siu.edu/_common/documents/law-journal/articles-2013/fall-2013/5-quigley-article-final.pdf

